

SAMARQAND VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA XIZMATLAR SOHASINING ROLI VA RIVOJLANISH HOLATI

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Real iqtisodiyot kafedrasini professori,
i.f.d. Kuvandikov Shukhrat Oblokulovich
MI -121 gurux magistranti
Mirzaxadjayeva Shaxzoda Shuxratovna*

Ma'lumki, respublikamizda xizmatlar sohasiga ixtisoslashgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yaratilgan qulay ishbilarmonlik muhiti bugungi kunda aholi turmush darajasining yaxshilanishida, mamlakat iqtisodiyotining barqaror yuksalishida, yangi ish o'rinlari yaratilishi va aholi daromadlari ortib borishida muhim omil bo'lmoqda.

Mamlakatimizda bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, raqobatni rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni rag'batlantirish yo'lidan izchil o'lg'a siljish borasida keng ko'lamlı chora-tadbirlar kompleksi qabul qilingan.

Xususan, davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hamda turizm sohasini jadal rivojlantirish borasida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 26-fevralda qabul qilingan № 55 sonli "2016-2020-yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qarori hamda 2017-yil 7-fevralda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan PF-4947 sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni¹da belgilab berilgan ustovor yo'nalishlar asosida milliy iqtisodiyotimizni tubdan takomillashtirish, xizmatlar sohasining undagi ahamiyatini yanada kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynagani kabi, O'zbekistonda bazan uchlamchi sektor deb ataluvchi ushbu soha mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Xususan, mamlakatimizdagi ko'rsatilgan xizmatlar sohasi hajmini

¹ Lex.uz

quyidagi jadval asosida ko'rishimiz mumkin: Hududlarda xizmatlar sohasining hajmi so'ngi yillarda sezilarli ravishda ortib 2018-yilda uning qiymati 150889,8 mlrd so'mni tashkil qilgan, 2019-yilda 193697,8 mlrd so'm, 2020-yilda 219978,5 mlrd so'm, 2021-yilda 284388,1 mlrd so'm hamda 2022-yilda 357554,5 mlrd so'mni tashkil qildi. Hududlar miqyosida xizmatlar sohasining ulushi eng ko'p Toshkent shahriga (2022-yilda 137 358,1 mlrd.so'm) va Toshkent viloyatiga (2022-yilda 25 994,9 mlrd.so'm) to'g'ri keladi. Eng kam ulushi esa Jizzax va Sirdaryo viloyatlariga to'g'ri keladi. Buning asosiy sababi sifatida esa ushbu hududlarda xizmat ko'rsatuvchi korxonalar kamligi, infratuzilmaning rivojlanmaganligi, mavjud salohiyatlardan, ayniqsa turistik salohiyatdan to'liq foydalanilmayotganini ko'rishimiz mumkin. Samarqand viloyatida esa so'nggi yilga bu ko'rsatkich 22 734,9 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Butun dunyo iqtisodiyoti rivojlanishining eng muhim qonuniyatlaridan biri, iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liqligi va milliy iqtisodiyotda xizmatlarning tobora ortib borayotgan roli hisoblanadi, bu xizmatlar sohasida foydalaniladigan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar ulushining ortishi bilan izohlanadi.

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirgi kunda sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi – 67,6 %, sanoat – 17,3 %, qurilish – 7,0 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida esa 8,1 % tashkil qildi (2.1.1-rasm).

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarini qamrab oladi.



2.1.1-rasm. Samarqand viloyatida korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat (2022-yil 1-yanvar holatiga)²

2.1.2-jadval

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining toifalari, birlik³

| | 2020-yil 1-yanvar holatiga | 2021-yil 1-yanvar holatiga | 2022-yil 1-yanvar holatiga | 2022-yil va 2020-yil o'rtasidagi farq |
|---|----------------------------------|----------------------------------|----------------------------------|---|
| Xizmatlar sohasi korxonalari, jami | 20 373 | 25 683 | 31 570 | +11 197 |
| yirik | 2 971 | 3 025 | 3 886 | +915 |
| kichik korxonalar va mikrofirmalar | 17 402 | 22 658 | 27 684 | +10 282 |
| - ulardan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar | 144 | 178 | 218 | +74 |

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, viloyatda xizmatlar sohasida faoliyat olib borayotgan tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 887 taga ortib, 31 570 tani tashkil qilgan. 2020-yilning 1-yanvardagi holatiga nisbatan esa, 11197 taga oshgan. Albatta, bu ko'rsatkichlarning oshishi viloyatda xizmatlar sohasi bo'yicha ijobiy tendensiyalar kuzatilayotganidan dalolat beradi (2.1.2-jadval).

² Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

³ Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2.1.3-Jadval

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlik⁴

| | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil | 2021-yil va 2019-yil o'rtasidagi farq |
|---|--------------|--------------|--------------|---------------------------------------|
| Xizmatlar sohasi korxonalari, jami | 4 820 | 5 307 | 6 713 | +1 893 |
| yirik | 76 | 69 | 103 | +27 |
| kichik korxonalar va mikrofirmalar | 4 744 | 5 238 | 6 610 | +1 866 |
| - ulardan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar | 41 | 21 | 53 | +12 |

Yuqoridagi jadvalda ko'rishimiz mumkinki, Samarqand viloyatining xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar soni 2019-yilda 4820 tani, 2020-yilda 5307 tani hamda 2021-yilda 6713 tani tashkil etib o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 406 taga ko'paygan. Xususan, 2021-yilda yirik korxonalar 103 tani tashkil etib 2019-yilga nisbatan 1893 taga oshgan. Kichik korxonalar va mikrofirmalar 6610 tani tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 1866 taga ko'paygan, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar esa 12 taga oshganini ko'rishimiz mumkin. Bularning barchasi bu sohada olib borilayotgan islohotlarning natijasidir.

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot va aloqa xizmatlari (mobil aloqa, internet, raqamli televidenie va boshqalar) kabi zamonaviy xizmat turlarini, shuningdek, zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

2.1.4-Jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish⁵, mlrd.

so'm

| | 2019-yil | O'sish sur'ati, %da | 2020-yil | O'sish sur'ati, %da | 2021-yil | O'sish sur'ati, %da |
|---------------------------------------|-----------------|---------------------|-----------------|---------------------|-----------------|---------------------|
| Xizmatlar – jami | 12 786,8 | 112,4 | 14 086,1 | 101,0 | 18 259,0 | 119,0 |
| asosiy turlari bo'yicha: | | | | | | |
| aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 633,7 | 112,7 | 716,9 | 111,1 | 835,8 | 115,2 |
| moliyaviy xizmatlar | 1 712,7 | 161,4 | 2 123,6 | 124,0 | 2 613,2 | 120,7 |
| transport xizmatlari | 3 152,9 | 102,5 | 3 371,1 | 96,3 | 4 604,7 | 124,3 |

⁴ Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁵ Sam.stat.uz

| | | | | | | |
|--|---------|-------|---------|-------|---------|-------|
| sh.j: avtotransport xizmatlari | 2 889,3 | 102,7 | 3 252,1 | 102,3 | 4 335,5 | 120,9 |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari | 461,4 | 120,7 | 400,0 | 76,8 | 629,6 | 138,6 |
| savdo xizmatlari | 3 648,9 | 106,6 | 4 205,2 | 103,3 | 5 175,9 | 110,2 |
| ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 329,5 | 88,4 | 321,7 | 88,8 | 466,8 | 132,7 |
| ta'lim sohasidagi xizmatlar | 556,8 | 100,3 | 694,2 | 107,7 | 1 003,6 | 134,4 |
| sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 193,8 | 112,7 | 260,7 | 125,1 | 341,2 | 120,4 |
| ijara xizmatlari | 404,5 | 101,8 | 423,6 | 94,9 | 548,4 | 118,4 |
| kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 349,5 | 101,0 | 367,7 | 96,8 | 538,3 | 132,6 |
| shaxsiy xizmatlar | 522,5 | 102,2 | 545,0 | 90,7 | 761,3 | 118,8 |
| me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 313,8 | 208,5 | 321,1 | 92,7 | 318,3 | 90,7 |
| boshqa xizmatlar | 506,8 | 131,4 | 335,3 | 60,3 | 421,9 | 115,1 |

2.1.4-Jadval ma'lumotlariga ko'ra 2021 yil yakunlari bo'yicha viloyatda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 18 259,0 mlrd. so'mga etgan. Uning nominal hajmi 4 172 857,3 mln. so'mga oshgan. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 119,0 % ni tashkil etgan. Eng yuqori o'sish sur'atlari yashash va ovqatlanish xizmatlari (138,6 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (134,4 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (132,7 %), kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (132,6 %) hamda transport xizmatlari (124,3 %) qayd etilgan. Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (90,7 %) kabi xizmat turlarida qayd etilgan.

Bugungi kunda yoshlarda iqtisodiy tayyorgarlik, xo'jalik yurita olish, tejamkorlik singari xislatlar shakllanishi uchun yoshlarni maktab va maktabdan tashqari muassasalar, ishlab chiqarish, tadbirkorlik sohasida haqiqiy iqtisodiy faoliyatga iloji boricha ertaroq va faol jalb etish uchun imkoniyat yaratish maqsadga muvofiqdir.

Hozir qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, sanoatlashgan qayta ishlash, trikotaj va tikuvchilik mahsulotlari

ishlab chiqarish, qurilish mollarini ishlab chiqarish, sayyohlik xizmati va shu kabi boshqa sohalarda kichik va xususiy korxonalarni rivojlantirishdagi keng imkoniyatlardan foydalanishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mardiyevna, S. G., & Farxodovna, M. R. (2023). Small Service Business Trends. *Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science*, 2(5), 123-130.
2. Mardiyevna, S. G., & Ugli, Y. S. N. (2023). Development of Entrepreneurship Organizing Enterprise Activity Through. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 564-571.
3. Mardiyevna, S. G., & Panjiyevich, K. S. (2023). Economic Fundamentals of the Development of Services. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 600-607.
4. Shadiyeva, G., & Isoqulov, Z. (2023). NARPAY TUMANIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA AHOLI XOHISH ISTAKLARI. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(3), 169-179.
5. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.
6. Shadiyeva, G. M., & Akbarovna, K. S. (2023). THEORETICAL VIEWS ON CONCEPTS OF ENTREPRENEURSHIP. *Journal of new century innovations*, 20(3), 42-45.
7. Shadiyeva, G. M., & Urozaliev, E. (2022). THE ESSENCE AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE DIGITALIZATION OF THE ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 963-971.
8. Shadiyeva, G. M., & Urozaliev, E. (2022). THE ESSENCE AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE DIGITALIZATION OF THE ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 963-971.
9. Shadiyeva, G. M., & o'g'li Isoqulov, Z. S. (2022). WAYS TO REDUCE POVERTY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 957-962.
10. Shadiyeva, G. M., & Kulmuradova, R. (2022). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN IMPROVING THE STANDARD OF LIVING AND ENSURING THE WELL-BEING OF THE POPULATION. *British View*, 7(4).
11. Nodirovna, M. S. (2023). Developing Rural Services and Increasing the Living Standards of the Population in the Republic of Uzbekistan. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 653-661.
12. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.
13. Abdukhalilovich, S. S., & Ugly, S. F. S. (2023). THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF POVERTY. *Journal of new century innovations*, 27(1), 97-100.
14. Abdukhalilovich, S. S., & Ugly, S. F. S. (2023). THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF POVERTY. *Journal of new century innovations*, 27(1), 97-100.

15. Mardievna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
16. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҚАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.
17. Mardievna, S. G., & Shukhatovna, M. S. (2021). Ways to increase investment potential in samarkand region. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(11), 44-50.
18. Шадиева, Г. (2021). Оила тадбиркорлигини ривожлантиришда инновацияларнинг айрим назарий жиҳатлари. *Экономика и образование*, (1), 121-126.
19. Мамаюнус, П., & Мардиевна, Қ. Ш. Г. (2021). Маркетинг фаолиятида қўлланиладиган ахборотлар тизими ва уларнинг таснифи. *Development Issues Of Innovative Economy In The Agricultural Sector*, 278.
20. Shadieva, G. M., & Akbarovna, K. S. (2023). THEORETICAL VIEWS ON CONCEPTS OF ENTREPRENEURSHIP. *Journal of new century innovations*, 20(3), 42-45.
21. Shadiyeva, G., & Kholmiraeva, G. (2022). FAMILY BUSINESS AND ITS DEVELOPMENT. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(8), 148-151.
22. Shadieva, G., & Saidmurodov, F. (2022). DEVELOPMENT OF NATIONAL TOURISM AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF ITS COMPETITIVENESS. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(8), 115-124.
23. Шадиева, Г. М., & Кувандиков, Ш. О. (2022). РОЛЬ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ СТРАНЫ. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 59-63.
24. Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANOAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 712-721.
25. Пардаев, М. Қ., & Шодиева, Г. М. (2001). Оила хўжалиги иқтисодиёти ва тадбиркорлиги. Самарқанд, СамКИ, 151.
26. Shadieva, G. M. (2022). SOCIO-ECONOMIC CONCEPT OF " FAMILY ECONOMY". *Confrencea*, 1(1), 239-243.
27. Шадиева, Г. М., & Садинова, Б. Б. (2022). Мамлакатимизда тадбиркорликни ривожлантириш йўллари.
28. Mardievna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). SYNERGETICS AND ITS ROLE IN SOLVING PROBLEMS OF FAMILY BUSINESS. *British View*, 8(1).
29. Mardievna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
30. Шадиева, Г., & Шакирова, Ф. (2021). ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШГА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШУВИДА

- ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛКНИ РАСМИЙЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ. Экономика и образование, (5), 381-384.
31. Mardiyeva, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
 32. Шадиева, Г. М. (2022). ОИЛА ХЎЖАЛИГИ ФАРОВОНЛИГИНИ ОШИРИШДА ОИЛАВИЙ БИЗНЕСНИНГ РОЛИ. *Архив научных исследований*, 2(1).
 33. Shadiyeva, G. M., & Kulmuradova, R. (2022). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN IMPROVING THE STANDARD OF LIVING AND ENSURING THE WELL-BEING OF THE POPULATION. *British View*, 7(4).
 34. Шадиева, Г. (2021). Оила тадбиркорлигини ривожлантиришда инновацияларнинг айрим назарий жиҳатлари. *Экономика и образование*, (1), 121-126.
 35. Shadiyeva, G. M., & Isoqulov, Z. S. (2022). WAYS TO REDUCE POVERTY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 957-962.
 36. Mardiyeva, S. G., & Ugli, A. U. A. (2023). PROVIDING EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN RURAL AREAS IN THE DIGITAL ECONOMY. *Research Focus*, 2(1), 7-10.
 37. Pardaeva, O. M., & Shodiyeva, G. M. (2020). The role of family entrepreneurs in society development. *American Journal of Economics and Business Management*, 3(5), 194-200.
 39. Шадиева, Г. (2021). ОИЛА ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АЙРИМ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ. *Экономика и образование*, (1), 121-126.
 40. Shadiyeva, G., & Isoqulov, Z. (2023). NARPAY TUMANIDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA‘MINLASHDA AHOLI XOHISH ISTAKLARI. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(3), 169-179.
 41. Мамаюнус, П., & Мардиевна, Қ. Ш. Г. (2021). Маркетинг фаолиятида қўлланиладиган ахборотлар тизими ва уларнинг таснифи. *Development Issues Of Innovative Economy In The Agricultural Sector*, 278.